

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**Qo'lyozma huquqida
UDK 633.11 631.523**

Xamroyev Ulugbekning

**Seleksiya jarayonida kuzgi bugdoyning qimmatli belgi
xususiyatlarini urganish.**

**5A410401 - Seleksiyasi va urug'chiligi mutaxassisligi bo'yicha
magistr darajasini olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ilmiy raxbar.professor

D.T.Abdukarimov

MUNDARIJA

	Kirish
I Bob.	Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.
1.1.	Bug'doy seleksiyasining rivojlanish tarixi
1.2.	Bug'doyning agrobiologik xususiyatlari
1.3.	Bug'doyning o'sish davridagi noqulay sharoitlarga chidamliligi-
1.4.	O'zbekistonda boshqoli don ekinlari yetishtirish istiqbollari.
2. Bob	Tajribaning o'tkazish sharoiti va metodikasi
2.1.	Tajriba o'tkazilgan yillaridagi uqlim sharoiti.
2.2.	Tuproq sharoiti.
2.3.	Tadqiqot o'tkazish uslublari-
2.4.	Tajribada qo'llanilgan bug'doy yetishtirish texnologiyasi
3 Bob.	3.Bob.Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.
3.	3.Seleksiya jarayonida kuzgi bugdoyning qimmatli belgi xususiyatlarini urganish.
3.1.	Bug'doy navlarining rivojlanish fazalari
3.2.	Bug'doy navlarining qimmatli xo`jalik belgi hususiyatlari .
3.2.1.	O'simlik bo'yi va yotib qolishga chidamliligi.
3.2.2.	O'simlikning mahsuldor tuplanishi.

3.2.3.	Boshoq uzunligi va boshoqdagi boshoqchalar soni.
3.2.4.	Bitta boshoqdagi don vazni va 1000 ta don vazni.
3.2.5.	Bug'doy navlarining hosildorlik ko'rsatkichlari.
3.3.	O'rganilgan bug'doy navlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari
	XULOSALAR
	ISHLAB CHIQARISHGA TAVSIYALAR
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI
	Ilova

Kirish

Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masala – O‘zbekistonning o‘tgan 2015-yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va 2016-yil uchun taraqqiyot yo‘limizning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olishdan iborat. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o‘tgan yili mo‘l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta’kidlash kerakki, bunday mo‘l hosil asosan qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g‘o‘za va boshqoli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘zlashtirish evaziga ta’minlandi. Mamlakatimizda bug‘doydan gektaridan o‘rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug‘idir.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur‘atlarda rivojlandi. O‘tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan yili qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig‘imga ega bo‘lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-

sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda. Bularning barchasi fidoyi dehqon va fermerlarimiz, barcha qishloq xo‘jaligi xodimlarining mashaqqatli va sharaflı mehnati mahsulidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Fursatdan foydalanib, bugun, mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga yana bir bor chin qalbimdan samimiy minnatdorlik izhor etishni o‘zinning burchim deb bilaman.

2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ga a‘zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo‘lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e‘tirof etildi. Qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yo‘nalishidir. Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xo‘jalik yuritishning fermerlik tizimiga o‘tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho‘rlangan bir vaziyatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo‘yicha keskin farq qilishi bilan bog‘liq.

Turli mintaqalarda tashkil qilingan fermer xo‘jaliklarining to‘plagan rivojlanish tajribasi, samaradorligi va rentabelligini hisobga olgan holda, ularni oqilona va qulay miqdordagi yer uchastkalari bilan ta‘minlash uchun qattiq ish olib borishga to‘g‘ri keldi. Shu borada yer maydonlari hajmini aniqlashda subyektiv yondashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik va bunday holatlarning oldini olishda ana shu o‘ta

muhim ishni amalga oshirish mas'uliyati deputatlar korpusi, Fermerlar kengashi va jamoatchilik zimmasiga yuklatilgani hal qiluvchi omil bo'ldi.

Er maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xo'jaligi va 250 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi. Toshkent, Jizzax, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida eng ko'p fermer xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yildi.

(O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi).

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Yangi navlarni yaratish uchun boshlang'ich manbalar ajratib olindi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida kasalliklarga va yotib qolishga chidamli, xosildorligi yuqori nav namunalari tanlab olindi va seleksiya jarayonida foydalanish tavsiya etildi.

Ishning tuzilmasining tavsifi. Dissertasiya kompyuterda yozilgan, 80 betdan iborat bo'lib, 4 ta -bob, 15 ta bo'lim, 8 ta jadval, 2 ta rasm, 2 ta diagramma, 66 ta adabiyot, shundan 16 tasi horijiy adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Tadqiqot natijalari bo'yicha hammualliflar bilan hamkorlikda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

1.Bob.Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.

1.1. Bug'doy seleksiyasining rivojlanish tarixi.

Bug'doy yer yuzida eng qadimiy ekin. Iroq, Misr, Xitoy, Shimoliy Mesopatamiya eng qadimiy bug'doy ekilgan mintaqalarga kiradi. Markaziy Osiyoda uni eramizdan VII minginchi yillardan boshlab yetishtira boshlangan. Amudaryoning quyi qismi, Farg'ona va Xisor vodiylari, Qashqadaryo, Surxandaryo hamda Vaxsh xavzalarining unumdor yerlarida eramizdan oldin II minginchi yillarida murakkab irrigasiya kanallari tizimlariga ega yuksak rivojlangan sug'oriladigan dehqonchilik mavjud bo'lgan va bug'doy yetishtirilgan. Markaziy Osiyo xududida o'tkazilgan arxeologik qazishlar mintaqada pakana bo'yli bug'doy (T. sompactum), yumshoq bug'doy (T. ayestivum), qattiq bug'doy (T. durum), turgidum (T. turgidum) turlari yetishtirilganligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo dunyodagi bug'doylarning gen markazlaridan biri hisoblanadi. (O'rinboyev T.X., Ilashev A.I.44).

Bug'doy donini yetishtirish va maydoni bo'yicha Rossiya jahonda boshqa mamlakatlar qatorida yetakchi o'rinni egallaydi. Yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga AQSh, Kanada, Argentina, Avstraliya kiradi. Ko'p miqdorda bug'doy doni Meksika, Braziliya, XXR, Xindiston, Yevropa mamlakatlaridan Fransiyada ishlab chiqiladi. (Kurbonboyev I.H. Siddiqov R.E. 27)

Qattiq bug'doy ekini Italiya, Jazoir, Suriya, Turkiya, Iroq, AQSh, Kanada, Meksika va Argentinada rivojlangan. Bug'doy yangi ekin bo'lgan tritikaleni hosil bo'lishida ota-onalarning o'simliklarining biri bo'lib, u ham hashaki, ham oziq-ovqat xo'raki ahamiyatga ega.

N.I.Vavilovning fikricha yumshoq zich va yumaloq bug'doyning vatani O'rta Osiyo gen markazidir (Old Osiyo gen markazida yumshoq bug'doyning endemik guruhi mavjud). Qattiq bug'doy ekini sifatida parallel ravishda Old Osiyo, Xabashistonda va O'rta yer dengizi gen markazida vujudga kelgan. O'rta yer dengizi va Xabashistonda bug'doyning boshqa turlari ham vujudga kelgan. Savdo-sotiq-iqtisodiy aloqalari natijasida bug'doy butun jahonga turqaladi. Ayniqsa bu kosmopolit-yumshoq bug'doy turiga taalluqlidir. (Vavilov N.I. 17)

Pakana bo'yli (kompaktnaya) bug'doy faqat Armanistonda (rayonlashtirilgan navlar) va O'rta Osiyoda saqlanib qolgan, bundan tashqari, Turkiya, Afg'oniston, Suriya, Xitoy, Mo'g'ulistonda, AQSh da uchraydi, (kuzgi, bahori va yarim kuzgi shakllari) yumaloq donchali bug'doy Xindiston yarim orol uchun endemik, faqat bahori shakllari mavjud. Turgidum bug'doyi asosan Balqanda, Yevropaning janubi va g'arbida, Old Osiyoda, Afg'onistonda, Eronda, Sharqiy Xitoyda tarqalgan. O'rta Osiyo, Qozog'iston va Rossiyada (Dog'iston) uchraydi. Uning bahori, kuzgi va yarim kuzgi shakllari mavjud.

Bug'doy ekini maydonlarining misli ko'rilmagan darajada kengayishi, uning ko'plab yangi serhosil navlarining yaratilishi va joriy etilishi, shuningdek sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori hosilli xorijiy kuzgi bug'doy navlarining, ularning samarali urug'chilik tizimining hamda yuqori hosil olishning

ilmiy asoslangan intensiv texnologiyalarining joriy etilishi g'allachilik rivojining asosiy omili bo'ldi. (Dorofeyev V.F. Yakubsiner M.M., Rudenko M.I. 21)

G.A.Lavronov, N.V.Karpov, A.I.Kovalev, N.V.Pokrovskiy, Ye.I.Bessonova, G'.Q.Qurbonov, T.Hodjaqulov, D.P.Boygulov, K.K.Komilov, N.M.Mamirov, S.M.Mamaniyozov, Yu.O.Oripov, R.Zolov, H.Musayev, N.Beknazarov, A.Hudoyqulov, J.Muhammedov, A.Muhammadiyev, B.Qorjovov, M.Holmatov, M.Begbo'tayev, A.Alishboyev, H.Badalov, X.Eshonqulov, A.Ravshanov, I.Mamarahimov singari ko'plab taniqli va jonkuyar olimlar o'zlarining 40-50 yillik mehnat faoliyatlari bilan tarixiy kashfiyotlar qilishgan. Ularning o'z davrida yaratgan yangiliklari Respublikaning hozirgi kundagi g'alla xirmonining yuksalishida o'z o'rnini topgan. Bug'doyning keng tarqalgan Tezpishar, Grekum-439, Oq bug'doy, Sanzar-4, Sanzar-6, Sanzar-8, Leukurum-3, Oltin bug'doy kabi navlariga bundan 30-40 yil oldin asos solingan. (Kurbanboyev I.H. Pokrovskaya M.N.(28) .

Respublikaning noqulay tuproq-iqlim sharoitida g'alladan yuqori hosil olish ilmiy izlanishlarsiz yuqori samara bermaydi. Shuning uchun g'allachilik olimlari oldida ushbu muammolarni yechishda yanada chuqurroq ilmiy izlanishlarni bajarish vazifasi turadi.Bug'doyning issiqqa chidash qobiliyati uning tarkibidagi namlik (suvning) keskin kamayib ketishiga sabab bo'ladigan omillarga qarshi bardosh bera olishiga ko'p jihatdan bog'liq. (Beknazarov N.B. (14).

Lalmikorlikda boshqoli don ekinlari issiqlikka, qurg'oqchilikka chidamliligi muhim ahamiyatga ega. Havo haroratining yuqori bo'lishi natijasida o'simlik hujayrasida ammiak to'planishi natijasida oqsil molekulalari siqishi hisobiga o'simlik quvray boshlaydi.

Dorofeyev V.F. Yakubsiner M.M., Rudenko M.I.(21) takidlashicha bug'doy tuplash fazasida issiqliq va qurg'oqchilik natijasida boshqoq soni kam va o'z navbatida boshqoq shakli kichik bo'ladi ba'zi navlarda boshqoq puch bo'lib qoladi.Bug'doy gullash davrida harorat yuqori bo'lsa don hosildorligi 20 foiz pasayishiga olib keladi.

Kurbonboyev I.H. Pokrovskaya M.N (28) ma'lumotlariga ko'ra, don to'lishish davri va don pishishi uchun eng qulay sharoit tuproqda namlik yetarli saqlangan holda o'rtacha sutkalik havo harorati 16-20⁰S, havo namligi 50% dan kam bo'lmaganda kuzatiladi. Agar havo harorati yuqorida ko'rsatilgandan baland bo'lganda don to'lishish davri va don pishishi davomiyligi qisqarishi, aksincha, past haroratda esa don pishish davrining uzayishi kuzatiladi .

Pokrovskaya N.F.(36) ta'kidlashicha, O'zbekiston sharoitida bug'doyning boshqolash pishish davrida yuqori harorat havoning nisbiy namligi ta'sirida pishish jarayoni tezlashadi.

Yuqori haroratning uzoq vaqt mobaynida tasir etishi, o'simlikning issiqlik aylanishini buzadi, barglar kuyadi, turli fiziologik jarayonlar to'xtaydi, o'sish kechikadi, oqibatda o'simlik nobud bo'ladi. (Sozinov A.A.41.).

V.F.Altergot, S.S.Mordkovichlar (9) takidlashicha, o'simlikning tuplash va naychalash fazasida haroratning yuqori bo'lishi, boshqoq umumiy vazning kamayishiga sabab bo'lib, bunda asosan boshqoqda don soning kam bo'lib qolishiga olib keladi.

Kojushko N.N., Volkova A.M.ning (26) fikricha bug'doyning havo qizib ketishi tufayli issiqlikdan zararlanishiga o'simlikdagi modda almashinuvining qaytarilmas tarzda buzilishiga sabab bo'lib, natijada yuqori harorat tasirida o'simlik to'qimalarida oqsilning parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. (30).

Lalmi yerlarda ekilgan bug'doy navlarining hosildorligi 1970 yildan beri bir maromda o'sib kelmoqda. Hosildorlik oshishining sababi yangi navlarning tashqi muhit sharoitlarga moslashishidir. Respublikamiz lalmikor sharoitlarida bug'doyning tuplash va boshqolash pishish davrlarida, yog'in miqdorining kam bo'lishi va havo haroratining yuqori hamda havo nisbiy namligining kamayishi natijasida don tarkibida oqsil ko'p bo'ladi. (Abdukarimov D.T.(6)..

Bug'doy dunyo dehqonchiligida qishloq xo'jalik ekinlari orasida ekilish maydonlariga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Dunyoda bug'doy ekin maydoni, hosildorligi, yalpi hosili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Eng ko'p bug'doy

ekiladigan maydonlar Rossiya, AQSh, Xitoy, Hindiston, Kanada, Argentina, Fransiya, Turkiya, Avstraliya, Qozog'iston, Italiyada joylashgan.

Bug'doy dunyodagi mamlakatlarning ko'pchiligida asosiy oziq-ovqat ekinidir. Dunyo aholisining yarmidan ko'prog'i uni iste'mol qiladi. Jahonda beshta qit'aning shimoliy qutb mintaqalaridan eng janubiy chegaralarigacha bug'doy ekiladi.

Jadval №1

Dunyoda bug'doy ekiladigan maydon, uning hosildorligi, yalpi hosili (Atoboyeva X.2010)

Yillar	2001	2002	2003	2004	O'rtacha
Ekin maydoni, mln./ga	211,6	210,1	204,3	213,8	210
Hosildorlik, s/ga	34,2	34,1	32,2	35,4	33,9
Ishlab chiqarish, mln./t	587,9	569,4	550,5	619,2	518,8

Kuzgi bug'doy bahorgi bug'doyga nisbatan kuzgi, qishki, bahorgi yog'ingarchiliklardan hosil bo'lgan tuproqdagi namlikdan yaxshi foydalanadi. Yuqori hosil shakllantiradi, hamda jazirama issiqlardan, garmseidan kam zararlanadi. (Amonov A.O.(5) .

Issiqlikning (yuqori temperatura) o'simlikka zararli ta'siri har xil bo'ladi. Avvalo o'simliklarda moddalar almashinuv jarayoning buzilishi natijasida zaharli moddalar yig'ilishi va yuqori temperatura ta'sirida protoplazma oqsillarining ivishi, hujayralarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. (Beknazarov N.B. 14).

O'zbekistonda kuzgi-qishki davrlarda kuchli va quruq sovuq paydo bo'lishi bilan havo haroratining tez-tez o'zgarishi, qor qoplaminig yupqa bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi, qishki vaqtincha iliq kunlar, tuproq qatlamining muzlashi, tuplash bo'g'ini chuqurligigacha yetib borishi lalmikorlikda bug'doy o'simligining qishga chidamlilik xususiyatlari yuqori bo'lishini taqazo etadi. Qishki davrda

havoning absolyut minimal harorati -35°S gacha, tuplash bo'g'ini joylashgan tuproq qatlamida -19°S gacha tushadi (Gladysheva O.N. Polimbetova F.A (18).

O'zbekistonda tez-tez sodir bo'ladigan qurg'oqchilik bug'doyning o'suv davri davomida o'simlikka katta ta'sir ko'rsatib, hosildorlik va don sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Havoning nisbiy namligi kam bo'lganda va yuqori issiqlikda tuproqdagi mavjud namlikdan samarali foydalanib yuqori hosil berish qobiliyatiga o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligi deyiladi. Qurg'oqchilikka chidamlilik murakkab xususiyat bo'lib, u o'simlikning suv bug'latishini kamaytiruvchi anatomik va morfologik xossalariga, hujayra sitoplazmasining suvsizlanishiga, issiqlik va tuz birikmalari konsentrasiyasiga, fiziologik chidamliligiga, o'sishi va rivojlanishi biologiyasiga bog'liq. (Kurbanboyev I.H. Siddiqov R.E.(27).

Qurg'oqchilik o'simliklarda organik modda to'planish miqdorini kamaytiradi, barglar o'sishini sekinlashtirib, asosiy fotosintez o'tadigan ishchi yuzasini qisqartiradi.

Shuning uchun O'zbekistonda yaratiladigan yangi navlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan holda qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatidir.

Issiq va qurg'oq sharoitga barglarning yopilgan, gorizontol holatda bo'lishi va ildiz tizimining baquvvat bo'lishi, don to'lishish davrining qisqa bo'lishi hosildorlik oshishiga asosiy omil bo'ldi. (Dospexov B.A.,(22)

Barannikova Z.D.. (12) ma'lumotlariga ko'ra, bug'doyning qurg'oqchilikka chidamli navlari kam tuplashi, kechki poyalar hosil bo'lmasligi, barg yuzasining kichik bo'lishligi, barglarning gorizontol holatda joylashishi hamda ingichka, buralgan bo'lishi, yaxshi rivojlangan ildiz sistemasi va don to'lishish davrining qisqaligi, hujayralar, suv bug'latadigan og'izchalarining kichikligi bilan xarakterlanadi, shuningdek qiltiqli bug'doy navlari ko'proq qurg'oqchilikka chidamli bo'ladi.

Ali A., Atkins I.M., Rooney L.W., (53) lar o'simlikning tuplash va boshqolash o'suv davrlarida, Sheveluxi V.S. (49) lar esa o'simlikning mum pishish davridan oldingi hamma rivojlanish fazalarida havo haroratining quruq va issiq bo'lishi hosildorlikni sezilarli kamaytirganligini kuzatishgan.

Hosildorlikni bir maromda bo'lishligini, biotik va abiotik omillarga bardoshli bo'lgan navlar yaratish orqali erishish mumkin.

Sermahsul bug'doy navini yaratishda tadqiqotchilar biotik stresslarga chidamlilikni rivojlantirib borishi kerak. Ko'pchilik hollarda seleksiya jarayonlarida yuqori mahsuldorlikka ega navlar ishlab-chiqarishga yetgandan so'ng kasallanib, hosildorligi pasayib bormoqda, ya'ni chidamli bo'lgan navda immunitet yo'qolib, kasallikka chalinib qolmoqda (Yusupov B.A, Nurbekov O'.A.51).

Bug'doy o'simligining generativ organlari qurg'oqchilikka va issiqlikka ta'sirchan bo'ladi. O'simlik o'suv davrining kiritik fazasi naychalash-boshqolash davri hisoblanib, bu davr urug'chida ona hujayralar, changchida arxeospora to'qimalari paydo bo'lishidan urug'lanish sodir bo'lguncha davom etadi. Ushbu kiritik davrda changchidagi mikrosporalarning yuqori havo haroratidan zararlanishi hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi (Xalilov N.X., Oripov R.O., Bobomirzayev P.X., Omonov A., Ziyadullayev Z.F.47).

Boshqoqning fotosintetik aktivligi issiqlikka chidamlilikning muhim bir bo'lagi bo'ladi. Ertapisharlik yoki issiqlikka chidamlilik yuqori hosil uchun kafolat bera olmaydi. Ertapishar navlar mahsuldor bo'lishi tez rivojlanishi bilan birga quruq moddaning tez tuplanishiga hamda assimilyasiya apparatining samarali bo'lishiga ham bog'liq. (Udachin R.A., Potokina S.A., Shaxmedov I.Sh., Borodina R.A.43).

Kobulov I.N. (29) fikricha, o'simlik reproduktiv organlarining shakllanishi davrida va changlanish davomida tuproqda nam yetishmasligi, shuningdek gullash paytida quruq va yuqori havo harorati urug'lanishning to'liq bo'lmasligiga olib

keladi va boshqadagi don soni kamayadi, 1000 dona don vazni o'zgarishi esa urug'lanishdan keyingi qurg'oqchilikning davom etishiga bog'liq.

Don tarkibidagi oqsil miqdori bo'yicha shuni takidlash joizki, issiq iqlimli cho'l xududlariga nisbatan tog'oldi yoki tog'li xududlarda barcha navlarda don tarkibidagi oqsil miqdori yuqori bo'lishi aniqlandi. Mum pishish davridan keyin davom etadigan qurg'oqchilik hosildorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmasada, don sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin (Pokrovskaya N.F., Bartashevich V.I., Xoreva V.I.35).

Qurg'oqchilikka chidamlilik juda murakkab xususiyat bo'lib, u namlikning suv bug'lanishini kamaytiruvchi anatomik va morfologik xossalariga hujayra sitoplazmasining suvsizlanishiga issiqlik va tuz birikmalari konsentrasiyasiga fiziologik chidamliligiga, o'sishi va rivojlanishining biologiyasiga bog'liq. (Mamaniyazov S.M.31).

Amanov M.A., Urinbayev T.X.(7) lar ta'kidlashicha, donning texnologik sifatiga bug'doy urug'ini kaysi muddatlarda ekilishiga xam bog'liqdir. Bug'doyning yetilish davrida harorat yuqori bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'lsa, bu holda dondagi oqsil va kleykovina miqdori yuqori bo'ladi. Pishish davrida yog'ingarchilik bo'lsa donning kleykovinasi past darajada bo'ladi.

Doni yuqori sifatga ega bo'lgan serhosil bug'doy navlarini yaratish juda murakkab vazifadir. Don oqsili, kleykovinasi va boshqa turli sifat ko'rsatkichlari tashqi muhit va o'stirish sharoitlariga bog'liq bo'lishi yuqori sifatli bug'doy navlari yaratishda seleksiyada bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Sifat ko'rsatkichlarining irsiylanishini ko'plab genlar boshqaradi. Masalan, yuqori sifatli kleykovina miqdori resessiv belgi bo'lib, bu belgining irsiylanishini uch-to'rt juft genlar nazorat qiladi.

Yumshoq bug'doy navlarining doni tarkibidagi kleykovina miqdorini taxlil qiladigan bo'lsak, oqsil miqdoriga qarama-qarshi ravishda viloyatning tog'oldi zonasida don tarkidagi kleykovina miqdori o'rta zona yoki cho'l zonadagiga nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'ldi. Jumladan: Vostorg navi doni tarkibidagi kleykovina miqdori cho'l zonasida 31.0% ni tashkil qilgan bo'lsa, o'rta zonada bu

ko'rsatkich 29.9% ni va tog' oldi zonasida 29.7 foizni tashkil etdi. Turkiston navida bu ko'rsatkich yuqoridagiga mos ravishda 29.2%, 28.8% va 27.0%ni, Yaksart navida 31.6%, 30.5% va 29.6%ni, Jayxun navida 28.9%, 28.2% va 26.4% ni, 2009/41 namunasida 31.6%, 29.7% va 28.3%ni, 2009/77 namunasida 30.9%, 30.0% va 28.6%ni, 2009/81 namunasida 31.4%, 28.3% va 27.6%ni tashkil etdi.

1.2.Bug'doy navlarining agrobiologik xususiyatlari.

Nav ekin hosildorligini, uning sifatini, noqulay tuproq-iqlim sharoitiga, kasallik va zararkunandalarga chidamligini, tezpusharligini belgilovchi asosiy omildir. Shuningdek ekinning tuproq unumdorligidan, suvdan, o'g'itlardan foydalanishiga qarab navlar bir biridan farq qiladi.

Nav tanlashda uning sovuqqa, issiqqa va boshqa omillarga chidamliligini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, hajm og'irligi va 1000 dona don og'irligi ham navning muhim agrobiologik xususiyatlardan hisoblanadi. Yuqori sifatli bug'doy yetishtirish muhimdir. Don sifati agrotexnik tadbirlar bilan birga navning agrobiologik xususiyatlariga ham bog'liq. Davlat reyestriga Intensiv, Kuma, Moskvich, Pamyat, Starshina, Umanka kabi kuchli bug'doy navlari kiritilgan.(Altergot V.F., S.S.Mordkovich. 9).

O'sish va rivojlanish davrining davomiyligi va haroratga munosabati bilan bug'doy biologiyasiga ko'ra kuzgi, yarim kuzgi, duvarak va bahori guruhlariga bo'linadi. O'zbekistonda qadimdan shimoliy sug'oriladigan hududlarda yarim kuzgi, qolgan sug'oriladigan va lalmikor yerlarda duvarak va bahori bug'doy navlari ekilib kelingan. O'tgan asrning 50-60-yillarida mamlakatimizning sug'oriladigan hududlarida kuzgi bug'doy ekila boshlagan.

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doy ekini maydonlari kengayib, boshqali don ekinlari umumiy maydonining 98% ini egalladi. Sug'oriladigan yerlarning qolgan qismiga yarim kuzgi, duvarak va bahori bug'doy navlari hamda arpa ekilmoqda. Ekilayotgan kuzgi bug'doy asosan yumshoq bug'doy (*Triticum*

aestivum L.) navlaridan iborat, lekin so'nggi yillarda kuzgi qattiq bug'doy (*Triticum durum*) navlari ekin maydonlari ham kengaymoqda.

Kuzgi bug'doyning o'suv davri bahori bug'doyga nisbatan ancha uzun bo'lib, qishki tinim davri bilan birga 230-250 kunni tashkil etadi. Kuzgi bug'doyning o'suv davri qishki tinim davridan tashqari 190-200 kunni, bahorgi bug'doyda bu ko'rsatkich 100-110 kunni tashkil etadi. Kuzgi bug'doy navlarida o'sish davri fazalari oralig'i ham bahori bug'doy navlariga nisbatan uzun bo'lishi kuzatiladi. Bug'doyning o'sish va rivojlanish davri rivojlanish stadiyalaridan, organogenez bosqichlaridan va fenologik fazalardan iborat. O'simlik ontogenezi—bug'doy urug'ining unib chiqishidan boshlab, yangi urug' pishib yetilguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'suv davri—bug'doyning urug'i unib chiqishidan donning mum pishish fazasigacha bo'lgan davri hisoblanadi. Organogenez—bug'doy organlarining (ildiz, poya, boshqoq, don kabi) hosil bo'lishi va rivojlanishidir. Bug'doyning stadiyali rivojlanishi bu organizmdagi fiziologik-bioximik jarayonlarning davomli o'zgarishi bo'lib, o'simlik ontogenezidagi davrlarning sifat jihatdan farqlanishiga asoslanadi.

Babushkin L.N., Kogay N.A., Zakirov Sh.S.(11)lar takidlashicha o'simlikning ma'lum stadiyali rivojlanishini o'tashi uchun tashqi muhit sharoitlari majmui (harorat, suv, kislorod, yorug'lik, ozuqa moddalari va boshqalar) zarur bo'ladi. Bug'doy o'sishi jarayonida 5 ta rivojlanish stadiyasini o'taydi: Birinchi stadiyani (yarovizasiya) o'tashda harorat hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ikkinchisida (yorug'lik)—kun uzunligi, uchinchidan quyosh energiyasining spektr tarkibi, to'rtinchidan - yorug'lik intensivligi, beshinchidan — fosfor ozuqasi.

Bug'doyning birinchi ikki stadiyasi chuqur o'rganilgan. Kuzgi bug'doy yarovizasiya stadiyasini bo'rtgan, nishlagan urug', unib chiqqan yoki o'simlik holatida $-6-8^{\circ}$ S dan $+6-8^{\circ}$ S oraligida o'taydi. Yarovizasiya stadiyasini o'tash uchun 30 kundan (yarim kuzgilar uchun) 60-70 kungacha (kuzgilar uchun) talab etiladi. Yarovizasiya stadiyasini o'tamagan bug'doy o'simligi boshqoq chiqarmaydi.

Shuning uchun kuzgi bug'doy navlarini faqatgina kuzda ekish tavsiya etiladi. Bahori navlar yarovizasiya stadiyasini $+5-10^0$ S haroratda 7-12 kun davomida o'taydi. Yorug'lik stadiyasini o'tash uchun kuzgi bug'doyga uzaytirilgan kun va yuqori harorat zarur bo'ladi. Bug'doy ushbu stadiyani yarovizasiya stadiyasini o'tab bo'lgandan so'ng o'tishi mumkin. Kuzgi bug'doy uzun kun ekini hisoblanadi.

Uchinchi va keyingi stadiyalarni o'tash uchun kuzgi bug'doy o'zida yetarli va ma'lum sifatga ega ozuqa elementlarini jamg'arishi talab etiladi. Bug'doy rivojlanishi jarayonida organogenezning bir qator bosqichlarini o'taydi. Organogenezning har bir bosqichida bir xil vazifani bajaruvchi morfologik organlar shakllanadi. Bug'doy o'suv davrida quyidagi rivojlanish fazalarni o'taydi: urug'larni bo'rtishi, unib chiqish, tuplanish, naychalash, boshqalash, gullash, pishish (sut, mum va to'liq pishish).

Urug'ning suv yutishi va unda kechadigan murakkab fiziologik-bioximik o'zgarishlarni o'z ichiga olgan jarayon bilan boshlanadi. Urug'ning bo'rtishiga ta'sir etuvchi asosiy omil namlik, issiqlik, havo kislorodi hisoblanadi. Urug' unib chiqishi uchun o'z og'irligiga nisbatan 47-48 % nam yutishi lozim, bu davrda kerak bo'ladigan eng past harorat kuzgi bug'doy uchun $+2^0$ S, $+4^0$ S hisoblanadi. Respublikaning sug'oriladigan yerlarida bug'doy urug'ining dala unuvchanligi ekish sifati va tuproq namligi darajasiga qarab 55-60% dan 75-82% gacha bo'lishi mumkin. Ekish oldidan nam to'planmagan, juda erta muddatlarda ekilgan dalalarda urug'ning dala unuvchanligi juda pasayib ketishi mumkin. Bug'doy urug'i yetarli namlik va harorat ($+20, +25^0$ S) sharoitlarda 7-8 kunda unib chiqadi.

Xo'jayeva N.J.(48) malumoticha urug'dan unib chiqqan murtak (koleoptile) asta-sekin yuqoriga o'sa boshlaydi va tuproq ustida dastlabki barg paydo qiladi. 3-4-barg paydo bo'lgandan keyin bargning yuqoriga o'sishi to'xtaydi. O'simlikning yer osti qismida yo'g'onlashgan bo'g'in hosil bo'ladi. Bu bo'g'in tuplanish bo'g'ini deb yuritiladi. Bo'g'in qo'ltiqlarida yangi kurtaklar bilan poyalar hosil

bo'ladi. Poyalarning qo'ltiq kurtaklari o'zlarining tuplash bo'g'izlarini hosil qiladi. Undan yon poyalar o'sib chiqadi. Yon poyalar hosil bo'lgach, bo'g'izdan ikkilamchi ildiz o'sib chiqadi.

Baygulov G.K; Pitonya A.A.(13)lar malumoticha g'alla ekinlarida, shu jumladan bug'doy o'simligida ham umumiy va mahsuldor tuplanish bo'ladi. O'simlikdan o'sib chiqqan barcha poyalar ham boshqoq hosil qilmaydi. Mahsuldor, ya'ni boshqoq hosil qilgan poyalar bilan boshqoq hosil qilmagan poyalar birgalikda umumiy tuplanishni keltirib chiqaradi. Noqulay sharoitlarda mahsuldor tuplanish umumiy tuplashdan ikki-uch marta kam bo'ladi. Kuzgi bug'doy $+2^{\circ}\text{S}+4^{\circ}\text{S}$ da tuplashni boshlashi mumkin, lekin $+13^{\circ}\text{S}+18^{\circ}\text{S}$ uning yaxshi tuplashi uchun eng maqbul hisoblanadi. Shunindek, unumdorligi past tuproqlarda bug'doyning tuplashi kamayadi. Barcha agrotexnik tadbirlarni qulay muddatlarda o'tkazish o'simlikning tuplashini oshiradi. Kechki muddatlarda ekilgan dalalarda kuzgi bug'doyning tuplashi bahorgacha cho'zilishi mumkin. Bunda unib chiqish-tuplash davri 70-80 kunga cho'ziladi. Kuzgi o'suv davrini kuchli yoki kuchsiz tuplagan holda tugallagan bug'doy yuqori hosil olishning to'liq garovi hisoblanmaydi.

Qish kirguncha 3-5 ta poya hosil qilgan bug'doy o'simligi yaxshi qishlaydi va yuqori hosil beradi. Bu o'simliklarda normal holatda qishlashi va yuqori hosil berishi uchun zarur zahira moddalari to'planadi. Kechki muddatlarda ekilganda o'simliklar yaxshi tuplashga va ildiz otishga ulgurmaydi, qishga kuchsiz holatda kiradi, bu o'z navbatida hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kuzgi bug'doyda tuplanish davrida $250-300^{\circ}\text{S}$ foydali harorat talab etiladi.

Bosh poya barg qini bo'g'inida hosil bo'lishi kutiladigan (tuproq yuzasidan 1,5-2 sm balandlikda) poya hosil bo'lishi davri hisoblanadi. Respublika hududida kuzgi bug'doyning bahorgi vegetasiyasi boshlanishidan naychalash fazasining boshlanishigacha 35-40 kun o'tadi. Poyada bo'g'imlar paydo bo'lib, poyalar bo'g'im oraliqlari o'sishi hisobiga o'sadi. Ob-havo va oziqa bilan ta'minlanishiga qarab, bug'doyda bo'g'im oralig'i 3-5 tagacha bo'lishi mumkin. Naychalash muddatlari iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Salqin yillarda bu davr birmuncha

cho'ziladi, havo haroratining ko'tarilishi uni tezlatadi. Naychalash davrining boshida poyada boshoq konusi hosil bo'ladi. Bu davrda boshoqning rivojlanishi poyaning o'sishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham bu davrda bug'doyning oziqa bilan ta'minlanishi boshoqning yirik va boshoqdagi don sonining ko'p bo'lishiga olib keladi. Naychalash davrida 400-450 °S foydali harorat talab etiladi.

Poyada so'nggi yuqori barg qo'ltig'idan boshoqning o'sib chiqishi bilan boshoqlash davri boshlanadi. Kuzgi bug'doyning naychalashdan boshoqlashgacha o'tgan davri 25-30 kunni tashkil qiladi. Suv bilan kam ta'minlangan dalalarda boshoq, odatda, barg qo'ltig'idan to'liq o'sib chiqmaydi, ayrim boshoqchalar to'liq yetilmaydi, natijada boshoqda don soni kamayib, hosildorlik keskin pasayadi. Boshoq paydo bo'lgan so'nggi poya bo'g'imining uzunligi o'simlikning o'sish davrida nam bilan ta'minlanganlik darajasini bildiradigan morfologik belgi hisoblanadi. Boshoqlash davrida 320-350 °S foydali harorat talab etiladi. (Dorofeyev V.F., Rudenko M.I., Udachin R.A.20).

Bug'doy qulay sharoitlarda o'stirilganda boshoq chiqargandan so'ng 4-5 kun o'tgach gullay boshlaydi va bu davr 3-6 kun davom etadi. Qurg'oqchil sharoitlarda o'simlik erta va tez gullaydi. Yuqori haroratda bu jarayon yanada tezlashadi. Gullarning changlanishi bilan donning shakllanishi va don to'lishish davri boshlanadi. Bu davrda 235-250 °S foydali harorat talab etiladi. Bu davr donning shakllanishi, sut pishishi, mum pishishi va to'liq pishishini o'z ichiga oladi. Donning sut pishishidan mum pishishning boshlanishigacha bo'lgan davrni don to'lishish davri ham deb ataladi. Don shakllanish davri gul changlanishidan boshlanib, sut pishish davrining boshlanishigacha 12-14 kun davom etadi. Donning sut pishish davri uning shakllanish davrining oxiridan boshlanib, mum pishishgacha davom etadi. Iqlim sharoitlari va nav xususiyatlariga ko'ra bu davr 12-16 kun davom etadi. Bu davrda don 50-40% namlikda bo'ladi. Donning mum pishish davri sut pishish davrining oxiridan boshlanib to'liq pishguncha 12-14 kun davom etadi. Bu davrda donning kattaligi qisqaradi, namligi pasayib 20% ga

tushadi. To'liq pishish davri boshlanishi bilan o'simlik to'liq quriydi, don rangga kiradi, uning namligi 16-14% ga tushadi.

Donning rivojlanishiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Shulardan eng asosiysi havo harorati va tuproq namligidir. Don shakllanish davrida ko'p suv talab etadi, keyinchalik mum pishish davriga kelib bu ko'rsatkich pasayib boradi. Bug'doy $+22^{\circ}\text{S}$ – $+25^{\circ}\text{S}$ haroratda faol don to'playdi. Haroratning undan ko'tarilishi bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bug'doy ekinining pishish davrida $660\text{--}750^{\circ}\text{S}$ foydali harorat talab etiladi. Bug'doy ekinining butun ontogenez davomida $2250\text{--}2350^{\circ}\text{S}$ foydali harorat zarur bo'ladi.

Bug'doyninig qishga va sovuqqa chidamligi qishga chidamligi - bu uning qishning noqulay ta'sirlari sharoitida yuqori hayotchanlik xususiyatlarini saqlab qolishidir. O'simlik sovuqqa chidamligi esa, 0°S dan past haroratga bardosh berish hususiyatiga aytiladi

Respublika hududida kuzgi bug'doy qish kunlari 70-90 kun majburiy tinim davrini o'taydi. Bu davrda tabiatning noqulay sharoitlari o'simliklarni turli darajada zararlashi mumkin. O'simlikning muzlashini keltirib chiqaradigan past harorat o'simlikka zarar yetkazuvchi omillardan sanaladi. Ayrim yillari kuzgi bug'doyning qalin qor tagida uzoq qolishi o'simlikning dimiqishiga va zamburug' kasalliklari bilan kasallanishiga olib keladi. (Dorofeyev V.F. Yakubsiner M.M., Rudenko M.I.(21).

Respublika xududida qulay muddatlarda sifatli ekilgan, undirib olingan, tuplagan kuzgi bug'doyni sovuq urish hollari kamdan-kam uchraydi. Odatda, kuzgi bug'doyni tuplash bo'g'inida harorat -16°S – -20°S ga pasayganda sovuq urish ehtimoli mavjud bo'ladi (bunda tuproq yuzasida qor qatlami bo'lmasdan sovuq -20°S va undan pastga tushadi). Kuzgi bug'doy navlari o'zlarining sovuqqa chidamlilik xususiyati bilan ajralib turadi. Biologik duvarak va bahori navlar kuzda ekilganda ularning sovuqdan nobud bo'lish ehtimoli ortadi. Qulay muddatlarda ekib undirib olish, tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda ma'danli o'g'itlarni

me'yorda qo'llash, nav tanlash yo'li bilan kuzgi bug'doyning qishga chidamligini oshirish bug'doy qishlashi uchun noqulay va qulay yillarda ham undan yuqori hosil olishning muhim omilidir.(Altergot V.F., S.S.Mordkovich .9)

Sovuqqa chidamli o'simlik qish faslining boshqa noqulay ta'sirlarini xam muvaffaqiyatli yengadi. O'simlikning sovuqqa chidamlilik xususiyati uning qishlashga tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. Chiniqish davrini o'tgan o'simlik yaxshi qishlaydi. Bug'doyning sovuqqa chiniqishi ikki pog'onada o'tadi. Birinchi pog'ona- qand yig'ish davri- $0-6^{\circ}\text{ S}$ haroratda, yorug'da, ikkinchi pog'ona- xo'jayralarning suvsizlanishi va protoplazma biokalloidlarning o'zgarishi- $-2-5^{\circ}\text{ S}$ haroratda kechadi.

Respublika xududida bug'doyning qishga chiniqish davri o'ziga hos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayrim yillari noyabr oyida quyi havo harorati - $11-14^{\circ}\text{ S}$ gacha pasayishi mumkin, shu davrda yuqori harorat $+12-18^{\circ}\text{ S}$ ga ko'tarilishi mumkin.Odatda bug'doyni sovuq urishi uning turli darajada siyraklanishiga olib keladi. Bu o'z navbatida hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.Siyraklangan maydonlarda don hosildorligining kamayishi birgina saqlanib qolgan o'simlik soniga emas, balki tuproqning fizik xolatiga xam bog'liq bo'ladi. Tuproq kuchli zichlashgan, siyraklangan dalalarda hosil ko'p yo'qotiladi. Tuprog'i yumshoq saqlangan dalalarda saqlanib qolgan o'simliklarning kuchli tuplashi xisobiga don hosildorligi sezilarli kamaymaydi.Respublikada bug'doyning sovuqdan nobud bo'lish extimoli Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida yuqori. Lalmikor yerlarda tekislik, tekislik - tepalik mintaqalarida ekilgan kuzgi bug'doyni sovuq urish xavfi kuchliroq.

Sovuq ta'siridan faqatgina unib chiqqan o'simlik zararlanib qolmay, balki tuproq yuzasiga chiqib ulgurmagan, bo'rtgan, nishlagan urug'lar ham nobud bo'ladi. Past haroratda, eng avvalo, tuproqqa ko'milmagan yoki yuza ko'milgan urug'lar, bo'rtgan, nishlagan, unib chiqqan o'simlik ko'proq nobud bo'ladi. Chunki kesaklar orasidagi g'ovaklardan ildiz qismga sovuq harorat kirishi ko'proq bo'ladi. Bunday xol ayniqsa g'o'za qator orasiga sifatsiz ekilgan dalalarda ko'p

uchraydi. Shuningdek, kesakli maydonlarda ham sovuqning ta'siri kuchli bo'ladi. Bunday maydonlarda bug'doy tuproq yuzasini qor qatlami tasirida kuchli talofat ko'radi.(Polimbetova F.A. 37)

Bug'doy o'suv davrida kech kuzda sug'orilgan maydonlarda past harorat ta'sirida ko'llagan suvning muzlashi natijasida o'simlikning nobud bo'lishi ehtimoli ko'payadi. O'simliklarni sovuq urishini oldini olishda tuproqni ishlash, o'g'itlash, optimal muddatlarda, urug'larni tegishli chuqurlikka ekish, sovuqqa chidamli bo'lgan kuzgi navlarni ekish singari chora tadbirlar qo'llaniladi. Qish oylarining havo harorati tahlil qilinganda uning yillar bo'yicha juda o'zgaruvchanligi kuzatiladi. Masalan, Toshkentda yanvar oyi harorati $+6^{\circ}\text{S}$, ayrim yillarda bu ko'rsatkich -9°S ga tushishi mumkin (ko'p yillik o'rtacha -1°S).

Ayrim yillari harorat 0°S dan past, o'simlik to'liq tinim davrida bo'ladigan qish oylarida o'simlikning qishda o'sishi uchun yetarlicha sharoit yuzaga keladi. Ayrim kunlari tuproq yuzasidagi havo harorati qishning o'simlik o'sishi uchun qulay bo'lgan $+5^{\circ}\text{S}$ dan yuqori ko'tarilishi mumkin. Lekin o'simlikning qishda o'sishi uchun bunday sharoit har yerda har xil kechadi. Qishki vegetasiya sharoitidan barcha g'alla ekminlari, ayniqsa uning biologik bahori va duvarak navlari yaxshi foydalanadi. Chunki ular biologik kuzgi navlarga nisbatan qish kelishi oldidan tinim davrini asosan o'tab bo'lgan holda qishlayotgan bo'ladi. Kuzgi navlarning tinim davri uzoq 60-70 kun davom etib qishning oxirigacha tinim davrida bo'lishi mumkin.

